O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU.
# ILMIY
# XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON**
**ILOVA TO'PLAM**

# НАУЧНЫЙ
# ВЕСТНИК.
# ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

**G.T.Xusanova**
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....335
**M.A.Kuchkarova**
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения ........................338
**Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova**
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari.....342
**K.Sh.Nishonova**
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....347
**A.R.Dilbarjonov**
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari.....350
**I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova**
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi.....354
**M.M.Abdumannopov**
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari.....358
**T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova**
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari ....362
**N.A.Qodirova**
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida) .....366
**Z.N.Ortiqova**
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari .....370
**M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva**
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rni .....377
**I.Kirgizov**
"Ey sabo" – komil insonga aksiologik yondashuv .....381
**A.T.Karimov**
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari.....386
**A.M.Nurmuxammadjonov**
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....390
**M.M.Najmetdinova**
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari .........396
**M.Kurbanova**
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....400
**X.M.Shermatova**
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati .....403
**T.N.Shokirov**
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi.....407
**B.M.Qurbonova**
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar.....410
**L.Sh.Shukurova**
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili.....415
**A.A.A'zamjonov**
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rni.....419
**A.A.Abdisattorov**
Musiqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari .....422
**I.D.Rustamov**
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rni (Doira cholg'usi misolida) .....428
**A.A.Ergashev**
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi .....432
**A.A.Mamurov**
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari.....438

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 3, 2024-yil DOI:10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a90

UO'K: 78.087.68

# VOKAL-XOR TA'LIMIDA FINALE-2003 DASTURINING QO'LLANISHI

# ПРИМЕНЕНИЕ ПРОГРАММЫ FINALE-2003 В ВОКАЛЬНО-ХОРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

# APPLICATION OF THE FINALE-2003 PROGRAM IN VOCAL AND CHORAL EDUCATION

**Ergashev Alijon Abdullayevish**
Farg'ona davlat universiteti, Vokal va cholg'u kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada vokal va xor ta'limi jarayonida vokal va xor ta'limi sifatini oshirish maqsadida musiqa asarlarining elektron versiyalaridan foydalanish, Finale 2003 musiqa muharriri asosida tuzilgan ovozli va vizual testlar namunalaridan foydalanish tahlil qilinadi. O'quv jarayonida talabalarning ixtisoslik bo'yicha mustaqil ishlashi, musiqa ta'limi samaradorligini oshirish, ko'rgazmali testlar, ovozli testlar tayyorlash haqida fikr yuritilgan. Vokal va xor ta'limi jarayonida dasturdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация***

*В данной статье анализирутся использование электронных вариантов музыкальных произведений в процессе вокально-хорового образования в целях повышения качества вокально-хорового образования, звуковых и наглядных тестов, изготовленных на базе нотного редактора Finale 2003, об использовании образцов в учебном процессе, о самостоятельной работе студентов по специальности на дому, о повышении эффективности музыкального образования, о подготовке наглядных тестов, звуковыз тестов. Даны рекомендации по использованию программы в процессе вокально-хорового образования.*

***Abstract***

*This article analyzes the use of electronic versions of musical works in the process of vocal and choral education in order to improve the quality of vocal and choral education, sound and visual tests made on the basis of the music editor Finale 2003, the use of samples in the educational process, and the independent work of students in the specialty home, about increasing the effectiveness of music education, about preparing visual tests, sound tests. Recommendations are given for using the program in the process of vocal and choral education.*

***Kalit so'zlar:*** *vokal va xor ta'limi, nota muharriri Finale-2003, ovozli va vizual testlar, talabalarning ixtisoslik bo'yicha mustaqil ishlashi, musiqa asarlarining elektron versiyalaridan foydalanish, dastur imkoniyatlari.*

***Ключевые слова:*** *вокально-хоровое образование, нотный редактор Finale-2003, звуковые и визуальные тесты, самостоятельная работа студентов по специальности, использование электронных версий музыкальных произведений, возможности программы.*

***Key words:*** *vocal and choral education, notation editor Finale-2003, sound and visual tests, independent work of students by specialization, use of electronic versions of musical works, program capabilities.*

## KIRISH

XX asrda fan va texnikaning rivojlanishi natijasida inson mehnatini engillashtiruvchi, mehnat unumdorligini oshiruvchi va juda ko'p qulayliklar beruvchi texnik vositalar ishlab chiqarildi. Ular qatoriga telefondan boshlab televizorgacha, kalkulyatordan boshlab zamonaviy kompyuterlargacha, avtomobildan boshlab samolyotgacha bo'lgan vositalarni kiritish mumkin. SHu bilan birga, bu vositalarni inson faoliyatining turli sohalarida unumli foydalanish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar yuzaga keldi.

Vaqtdan unumli foydalanish fan, texnika, adabiyot, musiqa va san'atning boshqa sohalarida qobiliyat va iste'dodlarning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Kishilar vaqtlarini ijtimoiy faoliyatga, madaniy aloqaga, aqliy va jismoniy jihatdan o'sishga va badiiy ijodiyotga ko'proq bag'ishlaydigan bo'ladilar [1].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Musiqa ta'limi mutaxassilari kompyuterda nota yozish dasturlaridan musiqa ta'limi tizimining hamma bosqichlarida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi

ta'limda, malaka oshirish institutlarida foydalanishi mumkin. Ayniqsa musiqa ta'limi yo'nalishidagi fanlarni jamoa qo'shiqchiligi va amaliyoti, xor dirijyorligi, xonandalik, maxsus cholg'u, qo'shimcha cholg'u, bolalar asarlari ustida ishlash amaliyoti, musiqa adabiyoti, maktabda musiqa o'qitish uslubiyoti, bolalar bog'chasida musiqa ta'limi uslubiyoti, solfedjio, musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya) o'qi-tishda ta'lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi deb o'ylayman. Bu jarayonda "ko'rayapman, eshitayapman, ijro etyapman" tamoyili to'la to'kis amalga oshirilgan bo'ladi. Bu jarayonda o'rganayotgan o'quvchining musiqiy qobiliyatlari har tomonlama rivojlanadi. Bunda o'quvchining ko'rgazmali, obrazli musiqiy fikrlash, eshitib tahlil qilish, darsdan so'ng kompyuter jo'rnavozligi bilan ansambl bo'lib ijro etish qobiliyatlari, xotirasi, ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Kompyuterda nota yozish dasturlaridan dars jarayonida o'qituvchilar, o'quvchilar foydalanibgina qolmay, darsdan keyingi o'z ustida ishlash jarayonida, ijrochilik mahoratlarini oshirishda, ijod namunalarini yaratishda va ulardan amaliyotda foydalanishlari mumkin. O'zlari yaratgan asarlarning notasini yozib, eshitib ko'rib, asarlarning ifodaliligi, jozibaliligi ustida ijodiy izlanishlar olib borishdek imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Yaratilgan hamma dasturlarni o'zlashtirishning keragi va iloji yo'q, chunki ularni o'zlashtirish ko'p vaqtni talab etadi. Amaliyotda qaysi dastur qulay bo'lsa o'sha dasturdan foydalangan ma'qul deb o'ylayman.

Finale 2003 dasturidan imkoniyatlaridan musiqa ta'limi yo'nalishidagi barcha fanlarni o'qitish jarayonida foydalinish, o'quvchilarning bilimi saviyasini oshirishi mumkin.

Bundan tashqari dastur imkoniyatlaridan umumta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida foydalanish mumkin. Albatta bu imkoniyatlardan foydalanish o'qituvchining tayyorgarligi va uslubiy mahoratiga bog'liq.

Xor uchun va yakka xonandalik uchun yozilgan musiqa asarlarining Finale 2003 dasturi asosida tayyortlangan ovozli va video variantlaridan xor va vokal ta'limi jarayonida samarali foydalanish mumkin. Finale 2003 dasturida yozilgan musiqa asarining ovozli kengaytmasi MID formatida bo'ladi. Undan talabalar mobil telefonida qo'yib foydalanishi mumkin.

OBS dasturi yordamida notasi Finale 2003 nota muharririda yoki boshqa nota muharririda yozilgan musiqa asarlarining mp4 kengaytmali video variantlarini yaratish mumkin. OBS dasturi monitordagi ma'lumotlarni ovozli va video holatida mp4 kengaytmali qilib yozib olish imkoniyatiga ega.

Xor dirijyorligi va vokal ijrochiligida musiqa asarlarining Finale 2003 dasturida yozilib OBS dasturi yordamida yaratilgan mp4 variantlaridan xor va vokal ta'limi jarayonida foydalanish shu soha ta'limi samaradorligini oshiradi.

Talabalarning o'z ijrochiligi ustida mustaqil ishlashida asarlarning MID yoki mp4 kengaytmali formatidan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Xor dirijyorligi fani asarlarining video varianti bilan darslarda va mustaqil ta'lim jarayonida foydalanish yaxshi natijalarga erishishdagi muhim usulidir.

Xor va vokal ta'limi jarayonida nazariy-amaliy maxsus fanlarning ahamiyati katta. Solfedjio va garmoniya mashg'ulotlarida shakllantiriladigan malakalar bo'lajak mutaxassislarning kelejakdagi professional parvozlariga zamin yaratadi. Buning uchun bo'lakak xor dirijyori yoki vokal xonandasi fortepianoda chalish, kuylash bilan birga nazariy bilimlarga ega bo'lishi, bu bilimlar amaliy malakalarga tayangan bo'lishi muhimdir.

Musiqiy nazariy bilimlarning o'zlashtirilganlik darajasini nazorat qilishda Finale 2003 dasturi asosida tayyorlangan ko'rgazmalardan ko'rgazmali testlar tayyorlash, nazariy bilimlarning ozlashtirilganlik darajasini aniqlash, shu bilan birga xor va vokal ta'limida ta'limning samaradorligini oshrishishda, nazariy va amaliy malakalarning shakllanishiga yordam beradi.

Garmoniya va musiqa nazariyasi mashg'ulotlarida quyidagi testnamunalaridan foydalanish mumkin.

**I-variant**

1. Qaysi intervalning pastki notasiga nisbatan yuqoriga kichik septima intervalini hosil qiladigan nota yozilsa D-durning kvintasiz $D_7$ hosil bo'ladi?




2. Qaysi intervalga 1-oktava fa notasi qo'shilsa d-mollning $t_6$ hosil bo'ladi?



A B C D

3. Qaysi intervalga 1-oktava lya notasi qo'shilsa F-dur $T_3$ hosil bo'ladi?



A B C D

4. Qaysi intervalga 1-oktava lya noyasi qo'shilsa G-dur ning tertsiyasiz $D_7$ hosil bo'ladi?



A B C D

5. Qaysi intervalga 1-oktava fa notasi qo'shilsa kamaytirilgan uchtovushlikning 6/4 hosil bo'ladi?



A B C D

6. Qaysi intervalga 1-oktava lya notasi qo'shilsa a-moll ning $t_{6/4}$ hosil bo'ladi?



A B C D

7. B-dur ning $D_{6/5}$ ni toping.



A B C D

8. C-dur ning $S_3$ ni toping.



A B C D

9. B-dur ning $D_3$ ni toping.



A B C D

10. C-dur ning $T_{6/4}$ ni toping.



A B C D

11. Qaysi intervalga 1-oktava mi notasi qo'shilsa a-moll $t_6$ hosil bo'ladi?



A B C D

12. Qaysi intervalga 2-oktava mi notasi qo'shilsa e-moll ning $t_6$ hosil bo'ladi?



A B C D

13. Qaysi intervalga 1-oktava mi notasi qo'shilsa C-dur ning $T_6$ hosil bo'ladi?



A B C D

14. Qaysi intervalga 1-oktava mi notasi qo'shilsa a-moll ning $t_{6/4}$ hosil bo'ladi?



A B C D

15. Qaysi intervalning pastki notasiga nisbatan yuqoriga kichik septima intervalini hosil qiladigan nota yozilsa A-dur ning kvintasiz $D_7$ hosil bo'ladi?



A B C D

16. 2-oktava re notasi qo'shilsa A-dur ning $D_7$ hosil bo'ladigan akkordni toping.



A B C D

17. 2-oktava re notasi qo'shilsa G-dur ning $D_{6/5}$ hosil bo'ladigan akkordni toping.



A B C D

18. 2-oktava re notasi qo'shilsa C-dur ning $II_{6/5}$ ni hosil qiladigan akkordni toping.



A B C D

19. d-moll paralel tonalligining $T_3$ ni toping.



A B C D

20. Qaysi intervalning pastki notasiga nisbatan yuqoriga kichik septima intervalini hosil qiladigan nota yozilsa B-dur ning kvintasiz $D_7$ hosil bo'ladi?



A B C D

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xor va vokal ta'limi jarayonida Finale 2003 dasturi asosida tayyorlangan o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar musiqa ta'limi samaradorligini oshiorishga xizmat qiladi.











**XULOSA**

Xor va vokal ta'limida Finale 2003 nota muharriri imkoniyatlaridan foydalanish musiqiy ta'lim samaradorligini oshriadi. Shu bilan birga musiqa ta'limi mutaxassislarining ijodiy faoliyatiniga keng imkoniyatlar yaratadi. Finale 2003 dasturida ishlash malakasiniga ega bo'lgan mutaxassislar o'zlari yaratga asarlarini keng ommaga tavsiya qilish imkoniyatiga, mutaxassislar o'zaro o'zlari yaratgan asar lari bi bilan keng ommami tanishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa musiqa ta'limi samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Men quyidagi asarlarning elektron variantini yaratganman va YouTube ijtimoiy tarmog'iga yuklaganman:

1. https://www.youtube.com/watch?v=EtTWEkXf0jU&t=46s
Ovoz sozlash mashqlari
2. https://www.youtube.com/watch?v=mrYhU4i5yB0
Kulcha non. Alijon Ergashev she'ri va musiqasi.
3. https://www.youtube.com/watch?v=zsySx-d2KCk
**Go'zal Toshkent. Turob To'la she'ri, Manas Leviyev musiqasi.**
4. https://www.youtube.com/watch?v=KX8TVr-juzs
So'ngi qo'ng'iroq Mahmudjon Dadaboyev she'ri, Alijon Ergashev musiqasi
5. https://www.youtube.com/watch?v=EtTWEkXf0jU
Ovoz sozlash mashqlari.
6. https://www.youtube.com/watch?v=WKqRXjfPX3Y
O'zbek tilim ona tilim Po'lat Mo'min she'ri, Zikirali Xadjayev msuqasi
7. https://www.youtube.com/watch?v=d4mo_ytXLfs
Italyanslaya polka. S Raxmaninov musiqasi.
8. https://www.youtube.com/watch?v=UpzI_9JnlpA
Shu aziz Vatan barchamizniki. Dilorom Omonullayeva musiqasi
9. https://www.youtube.com/watch?v=34PVF89zdDw
Shirin qizchaman. Xurshida Hasanova musiqasi.
10. https://www.youtube.com/watch?v=rA_SUwzgkp0
Umrimning bahori. Alijon Ergashev notalashtirgan.
11. https://www.youtube.com/watch?v=OHqjnFdumLE
Chamandagi gullarmiz. Po'lat Mo'min she'ri, Nadim Norxo'jayev musiqasi.
12. https://www.youtube.com/watch?v=-beAdfEB2-8
Otash qalblar. Erkin Vohidov she'ri. Sayfi Jalil musiqasi
13. https://www.youtube.com/watch?v=NKJoy8PNET8
Amaliyot uchun ovoz sozlash mashqlari.
14. https://www.youtube.com/watch?v=1RN04p6X59Q
ОНА ДИЁР МАДХИ МАХМУДЖОН ДАДАБОЕВ ШЕЪРИ АЛИЖОН ЭРГАШЕВ МУСИКАСИ
15. https://www.youtube.com/watch?v=JrsB60HjGxI
Dugonalar. Slova Sharof Rashidov she'ri, Solomon Yudakov musiqasi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Finele 2003 dasturidan musiqiy ta'lim jarayonida samarali foydalanish musiqiy ta'lim samaradorligini oshirishda, mutaxassislarining ijodiy imkonniyatlarini rivojlantirishda muhim ahaniyatga ega omil bo'lib xizmat qiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lm berish kelajakda albatta o'z samarasini ko'rsatadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergashev, A. (2022). MUSIC EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES. *Science and Innovation*, *1*(7), 262-265.Эргашев, А. А. Finale 2003 дастурида мусиқа ноталарини ёзиш. *ХН Нурматов. Тошкент-2002.*

2. Ergashev, A. (2022). MUSIQA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(10-2), 545-554.

3. Juramirzayev, A., & Ergashev, A. (2022). THE SCIENTIFIC AND CREATIVE ROLE OF THE PEOPLE'S ARTIST OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, PROFESSOR SULTANALI MANNOPOV IN THE PROMOTION OF THE UZBEK NATIONAL MUSICAL ART. *Science and innovation*, *1*(B7), 121-125.

4. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *2*(2), 53-56.